

YANGIBOYEV Adhambek Esanovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrasini tayanch
doktoranti

NAJMIDDIN UMAR NASAFIYNING QUR'ON ILMLARIGA OID ASARLARI TASNIFI

КЛАССИФИКАЦИЯ РАБОТ НАДЖМИДДИНА УМАРА НАСАФИ ПО КОРАНОВЕДЕНИЮ

CLASSIFICATION OF NAJMIDDIN UMAR NASAFI'S WORKS ON QUR'ANIC SCIENCES

Annotatsiya: Ushbu maqolada Umar Nasafiyning hayoti va ijodi haqida bir qancha mashhur olimlarning so'zlari zikr qilinadi va aynan uning Qur'oni karim bilan bog'liq sakkizta asari haqida so'z boradi. Ular mazmun va mohiyat jihatidan sinflarga ajratiladi. Har bir asar o'z ichiga olgan umumiy ma'no bayon etilib, muallifning uslubi tahlil qilinadi. Jumladan, "al-Akmal al-atval" va at-Taysiyr fit-tafsir" nomli tafsirlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida ham ba'zi mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Qur'on, tafsir, mufasssir, tarix, "ulum al-Qur'on", aqida, qiroat, hanafiylik mazhabi, fiqh.

Аннотация: В данной статье приводятся слова нескольких известных ученых о жизни и творчестве Умара Насафи, а также конкретно о его восьми трудах, связанных со Священным Кораном. Они делятся на классы по содержанию и сущности. Описывается общий смысл каждого произведения и анализируется авторский стиль. В частности, сделаны некоторые замечания по поводу специфических особенностей комментариев «ал-Акмаль ат-атвал» и ат-Тайсийр фит-тафсир.

Ключевые слова: Коран, тафсир, толкователь Корана (мufasssir) история, "улум аль-Куран", акида, декламация, Ханафитский мазхаб, фикх.

Abstract: This article mentions the opinions of several famous scholars about the life and work of Umar Nasafi, and specifically about his eight works related to the Holy Qur'an. They are divided into classes according to content and essence. The general meaning of each work is

described and the author's style is analyzed. In particular, some comments are made about the specific characteristics of the commentaries "al-Akmal al-atval" and al-Taysiyr fit-tafsir.

Keywords: Koran, tafsir, mufasssir, history, "ulum al-Koran", aqida, recitation, Hanafi school, fiqh.

KIRISH

Umar Nasafiy islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan, juda ko'p va foydali asarlar yozib qoldirgan olimdir. Masalan, aqida borasida yozgan "Aqoid an-Nasafiy" nomli kitobi sof islom e'tiqodini bayon qiluvchi ishonchli manba sifatida butun dunyoga mashhur. Taniqli olim Imom Taftazoniy ham ushbu asarga sharh yozgan[3:3,4]. Fiqh va lug'at ilmiga doir "Tilbat at-talaba" asarida hanafiy mazhabi fiqhiga oid tushunish qiyin bo'lgan jumla va so'zlarni izohlab bergan. Hanafiy ulamolari ishlatgan fiqhiy so'z va atamalarni ular yozgan kitoblarning boblariga mos ravishda, ya'ni avval taxorat bobi, so'ngra namoz bobi, so'ngra ro'za bobi kabi tartibda bayon qiladi[12:2,3]. Shuningdek, uning tarix ilmi rivojiga ham salmoqli hissa qo'shganligi ma'lum. U o'z davridagi bir qancha ulamolar, muhaddislar va boshqa olimlar haqida qimmatli ma'lumotlarni beradigan "Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand" nomli asarini yozib qoldirgan.

"Abu Hafs an-Nasafiyning "Kitob al-qand" asarida ham ulamolarning ismlari o'ziga xos tarzda alifbo tartibida joylashtirilgan. Unda ismlar bosh harfiga ko'ra guruhlariga jamlab, guruhlar alifbo bo'yicha tartiblangan. Masalan, Xolid, Xalaf va h.k. kabi ismlardan so'ng Dovud, Zakvon ismlari keladi. Ammo guruhlar ichidagi bir xil harf bilan boshlanuvchi ismlar o'zaro alifbo tartibida emas, balki shaxslarning islom tarixida egallagan mavqei darajalariga ko'ra, yashab o'tgan davri bo'yicha yoki mazkur shaxslarga nomdosh bo'lishiga ko'ra tartibga solingan. Masalan, arab alifbosiga ko'ra Qutayba ibn Muslim (704-715) nomi Qusam ibn al-Abbos (v. 675 yildan keyin) nomidan oldin kelishi kerak edi, ammo asarda aksincha, Qutaybaning tarjimai holi tarixiylikka ko'ra Qusamdan keyin keladi. Bundan tashqari, Ali ismli ulamolarning nomlari, ilk xalifalarning tarixiga ko'ra, Umar va Usmon ismli shaxslardan keyin joylashtirilgan. Asarda tartib ismlar bo'yicha bo'lsada, nomdan avval olimning laqab va kunyasi berilgan. Masalan, Ash-Shayx al-Imom Abul Hasan Ali ibn al-Husayn

biografiyasi... Bu esa alifbo tartibi bo'yicha biror nomni qidirib topmoqchi bo'lgan kishi uchun muayyan qiyinchilik tug'diradi.

“Kitob al-qand”da nafaqat Samarqand shahriga aloqador ulamolar, balki So'g'd viloyatidagi qishloqlar, kichik shaharlar, jumladan Nasafga tegishli bo'lgan ulamolar ham o'rin olganlar. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Abu Hafs an-Nasafiy “Samarqand” nomi ostida o'sha davrdagi “So'g'di Samarqand”ni nazarda tutgan”[13:40].

ASOSIY QISM

Umar Nasafiyning hayoti va ijodi haqida ko'plab tarixiy manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniylar Umar Nasafiy haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan:

“U odob-axloq va diniy qoidalarini yaxshi biladigan, fozil, faqih imomdir. Hadis va fiqh borasida asarlar yozgan hamda “Jomi us-sag'ir”ni she'riy tarzda tartiblab chiqqan. Uning hadis borasidagi to'plamlariga kelsak, men ularni o'qib, sinchiklab o'rganib chiqdim va ularda ko'pgina kamchiliklar, ismlarning o'zgarib qolishi, ba'zilarining esa tushib qolishi hamda ba'zi noaniqliklarni ko'rdim. Shunga qaramasdan u kitob yozish va jamlashda yetarlicha tajribaga ega edi. Uni Samarqandda hayotlik chog'ida topmagan bo'lsamda, jamlagan va eshitgan (asar) larining barchasidan menga ijoza berildi. Bir jamoa olimlar undan menga hadislar rivoyat qilishdi. Albatta, men uni garchi sanadi oliy bo'lmasada, asarlarining ko'pligi va shon-shuhratining keng tarqalganligidan ushbu majmuada xotirlab o'tdim. U hadisni o'rganuvchi va yaxshi ko'ruvchilardan edi, biroq unga hadisni tushunish ne'mati berilmadi. Shuningdek, uning hakim va faqihlar uslubida yozgan ma'noli she'ri ham bor edi”.

Ibn Najjor (vaf. 972/1564) shunday deydi: “U faqih, fozil, mufasssir, muhaddis, adib va maxoratli ustoz edi. Shuningdek, tafsir, hadis va shartlar borasida kitoblar yozgan”.

Uning eng yaqin shogirdlaridan biri, mashhur “Hidoya” asarining muallifi imom Marg'inoniy (vaf. 593/1197) ham ustozini quyidagicha ta'riflaydi: “Imomlarning imomi, ummatning peshvosi edi”[14:8,9].

Adnaviy (hijriy XI asr) aytadi: “U zakovatli, farosatli, fozil, usulchi, mutakallim, mufasssir, muhaddis, faqih, hofiz, nahvshunos, tilshunos

imom edi. U ilmi kengligi hamda avom va xoslar xuzurida butkul e'tirof etilganidan to'rtta mashhur ulamodan biri edi. Shu bilan birga u ilmlarni imlo qilish va og'zaki rivoyat uslubida tarqatgan ustozdir”.

Mashhur ulamolardan biri Abdulhay Laknaviy (vaf. 1304/1995) ham alloma xususida quyidagilarni yozadi: “U fozil, usulchi, mutakallim, mufasssir, muhaddis, faqih, hofiz, nahvshunos imom edi. Ulkan muvaffaqiyati hamda avom va xoslar tomonidan e'tirof qilinganligi bilan to'rtta buyuk olimdan biri edi. Bir rivoyatda shunday deyiladi: “U insonlar va jinlarga ta'lim beradi, shuning uchun uni insonlar-u jinning muftiysi deganlar. Qori (Mullo Ali al-Qori) ham shunday deb aytgan”[10:150].

Shuningdek, Alloma haqida Kashmiriy (vaf. 1351/1933) ham o'z fikrlarini bildirib o'tadi va shunday deydi: “Bilginki, shayx Najmiddin Umar Nasafiy vaqf borasida bir kitob yozdi. Men uni ko'rganimda balog'ati va fasohati yetukligidan hayratda qoldim. Bu Nasafiy “Kanz” (Kanzul haqoyiq)ning sohibidan peshvoroqdir. U bilimli muhaddis, buyuk tarixchi bo'lib, yigirma ikki jildlik “Samarqand tarixi” asarini yozgan”[6:14,15].

Umar Nasafiy asosan aqida va tarix yo'nalishida yozgan kitoblari bilan keng tanilgan bo'lsada, Qur'on ilmlari hamda tafsir sohasiga oid sakkizta asar yozgani ma'lum. Ulardan ba'zilari qiroat ilmiga aloqador asarlar bo'lsa, ba'zilari esa bevosita Qur'on oyatlari va g'arib (tushunish qiyin) so'zlar sharhi bilan bog'liq tafsir kitoblari. Ulardan faqat bittasida Qur'oni karimda kelgan sura, oyat va harflarning soni bayon qilingan. Shunga ko'ra, Umar Nasafiy yozgan Qur'on ilmlariga oid asarlarni uch sinfga bo'lish mumkin bo'ladi:

Birinchi sinf aynan, qiroat ilmi haqida yozilgan asarlar bo'lib, ularning soni uchta. Ulardan biri “Zillat al-Qori” (Qur'on o'quvchining xatosi) deb nomlangan risoladir. Unda Imom Qur'on o'quvchi kishining namozda yoki namozdan tashqarida bo'ladigan xatolari xususida so'z yuritgan. Agar namozda bo'lsa namozni botil yoki fosid qiladigan, yoki aksincha namozni buzmaydigan, namozdan tashqarida esa ma'noni buzadigan va buzmaydigan holatda qilish mumkin bo'lgan xatolar haqida yozadi.

Umar Nasafiy ushbu asarida shunday deydi: “Bilginki, qiroatdagi xatolar olti turga bo'linadi:

birinchisi oyatda, ikkinchisi kalimada, uchinchisi harfda, to'rtinchisi e'robda, beshinchisi so'zni bo'lishlikda, oltinchisi vaqf (to'xtash) va ibtido (boshlash)da. Oyatdagi xatolar olti xil bo'ladi: ziyoda¹, noqis², taqdim, ta'xir³, ibdol⁴ va takror⁵ [11:1a].

Nasafiy kalimalarda uchraydigan xatolarni ham ziyoda, noqis, taqdim, ta'xir, ibdol va takror kabi olti qismga bo'lib, ulardan qaysi birida namoz fosid bo'ladi, qaysisida esa fosid bo'lmaydi kabi savollarga hanafiy mazhabi imomlarining qarashlarini javob sifatida keltirib o'tgan. Masalan, namozda qiroat qilgan kishi birorta so'zni ziyoda qilib qo'ysa namozi fosid bo'lish yoki bo'lmaslik masalasini quyidagicha izohlaydi: "Kalimalardagi xatolardan avvalgisi ziyoda qilishlikdir. Ushbu ziyoda qilingan so'z yoki Qur'ondan bo'ladi yoki undan bo'lmaydi. Bu bilan ma'no o'zgarishi ham o'zgarmasligi ham mumkin. Agar u so'z Qur'ondan bo'lsayu ma'no buzilmasa namoz fosid bo'lmaydi. Misol uchun, *بَرَءَ لِلَّهِ دُمُوحًا* deb o'qigani kabi⁶. Agar bu bilan ma'no buzilsa bilittifoq fosid bo'ladi. Misol uchun, *أَوْنَمَ نَيِّدًا*, *وَيَرْبَلَا رُيْخٌ مَّهْ كَيْلُوا تِاحِلِ اصْلَا* *أَوْرُفَكَو* o'qigani kabi⁷. Ziyoga qilingan so'z Qur'ondan bo'lmasa va ma'no o'zgarmasa, *لُحْنُو* *وَتَكَافَتَا* *فِي* *نَامُرُو* *حُفَّتْ* o'qilib o'qigan kabi, qiyosga binoan Abu Hanifa va Muhammad rohimahumallohlar: "Namoz fosid bo'lmaydi" deganlar. Chunki, olma mevalardandir. Qiyosga binoan Abu Yusuf (r.h) fosid bo'lishini aytgan. Chunki, u so'z Qur'ondan emas" [11:1b,2,a].

Muallif harf borasida xatolarni ham yuqoridagi taqsimlarga muvofiq olti turga bo'ladi. Ular: biror harfni ziyoda qilish yoki tashlab ketish, keyin keladigan harfni oldin yoki oldin keladigan harfni keyin o'qish, bir harfni boshqa harfning o'rniga o'qib qo'yish va oxirgisi bir harfni takror o'qib yuborishdir [11:b]. Shu tariqa qolgan turlarni

¹ Ikkita ketma-ket oyatlar orasiga boshqa bir oyatni qo'shib o'qib yuborish.

² Ikkita oyat o'rtasidan bitta oyatni tark qilib o'qib qo'yishlik.

³ Ikkita oyatning ikkinchisini birinchisidan oldin o'qib qo'yishlik.

⁴ Bir suraning ichida boshqa bir suraning oyatini o'qib yuborish.

⁵ Bir oyatni takror o'qib qo'yishlik.

⁶ Bunda *أَجْمَعِينَ* so'zi ziyoda qilingan.

⁷ Bunda *وَكُفُّوا* so'zi ziyoda qilingan.

⁸ Bu oyat Arrahmon surasining 68-oyati bo'lib, aslida *فَتَأَخَّ* so'zi yo'q. Oyatning ma'nosi: "U ikkovlari(jannat)da mevalar, xurmo va anorlar bor". *فَتَأَخَّ* so'zi esa olma degani.

ham oltitadan qismlarga bo'ladi va barchasining hukmini birma-bir bayon qiladi.

Nasafiy ushbu asarni hanafiy mazhabi asosida va mazhab faqihlarining qarashlariga tayangan holda yozgan. Kitob nafaqat Qur'on o'quvchilari uchun, qolaversa barcha namozxonlar uchun ham o'ta zarur bo'lgan manbadir. Chunki islom dinining asosi bo'lgan Alloh taoloning muborak kalomini to'g'ri va xatosiz qiroat qilish barcha musulmonlar oldidagi muhim vazifalardan biridir. Qur'onni xato o'qish oqibatida esa ma'nolar o'zgarib, ko'pgina fitnalar va tushunmovchiliklar hattoki musulmonning iymoniga zarar yetishi ham mumkin. Bu narsalar esa asarning qiymatini yana oshiradi. Agar bu asarning yozilishiga e'tibor qaratilsa Allomaning go'zal uslubni qo'llaganini ko'rish mumkin bo'ladi. Ya'ni u xato qilish mumkin bo'lgan o'rinlarni oltiga va o'z o'rnida ulardan har birini oltitadan qismlarga taqsimlaydi.

Qiroat ilmiga doir qolgan ikkita asari "Matla an-nujum va majma al-ulum" (Yulduzlarning chiqish joyi va ilmlar majmuasi) nomli to'plami ichida alohida mavzular bo'lib keladi. To'plamda keltirilgan mavzularning umimiy soni 75 ta bo'lib, ulardan 8, 9, 10 va 11-mavzular aynan Qur'on ilmlari bilan bog'liq risolalardir. Jumladan, 8-mavzu – "Muxtasar al-bayon va-l-fahs an qiroati Osim birivoyati Hafs" (Hafs rivoyat qilgan Osim qiroatini o'rganish va uning muxtasar bayoni) nomli asardir. Ushbu muxtasarda Hafsnig Osimdan qilgan qiroatining ba'zi hukmlari bayon qilinadi va bu boshqa bir asarning qisqa shakli ekani ta'kidlanadi.

Keyingi asar ham aynan qiroat ilmiga tegishli bo'lib, "Kitob usul al-vuquf ala mavozi al-vuquf" (To'xtash o'rinlariga ko'ra to'xtash usuli kitobi) deb nomlanadi. Umar Nasafiyning ushbu asarida keltirilgan Qur'oni karimdagi to'xtashga oid hukmlar Imom Muqriy Mansur ibn Ibrohim al-Iroqiy hamda uning o'g'li Shayx Abu Muhammad Abdulhamid ibn Mansurlardan naql qilinganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Allomaning Qur'onshunoslikka doir asarlarining ikkinchi sinfi bevosita Qur'oni karim suralari, oyatlari va harflari bilan bog'liq. Bu borada uning birgina asari borligi ma'lum. U ham bo'lsa, "Matla an-nujum va majma al-ulum" majmuasida 10-mavzu sifatida keladi. Asar nomi "Adad huruf al-Qur'on" (Qur'on harflari soni) bo'lib, unda Qur'oni karimda kelgan suralar, oyatlar va harflarning soni qancha ekanligi to'g'risidagi

ma'lumotlarni keltiradi. U kichik hajmga ega bo'lish bilan birga mutaxassislar uchun ajoyib qo'llanma bo'la oladi.

Umar Nasafiyning yuqorida zikr qilingan Qur'on ilmlariga oid sakkizta asaridan to'rttasi tafsir ilmiga, ya'ni Qur'oni karim ma'nolariga oid bo'lib, ular uchinchi sinfni tashkil qiladi. Shulardan biri "Matla an-nujum va majma al-ulum" to'plami tarkibiga kiruvchi "Kitob al-bayon an g'arib al-Qur'on" (Qur'on g'aroyiboti (tushunish qiyin so'zlar) haqida bayon qiluvchi kitob) nomli asaridir. Umar Nasafiy bu asarida suralarning ketma-ketligiga amal qilgan holda ulardagi tushunish qiyin bo'lgan so'zlarni turli xil usullar bilan sharhlab beradi. Dastlab, istioza va basmaladagi so'zlarga birma-bir ma'no aytib, so'ngra Fotiha surasidagi so'zlar sharhiga kirishadi va asar oxirigacha shu tartibni saqlab qoladi.

Qur'oni karim ma'nolariga oid asarlaridan yana biri "Tafsir an-Nasafiy" deb nomlanuvchi fors tilidagi kitobidir. Ali Shoh Is'hoqning "Mu'jamu musannafot al-Qur'on al-karim" asarida ushbu tafsirni boshqa bir asarining fors tilidagi tarjimasi bo'lishi mumkinligi aytilgan. Uning bir qancha qo'lyozmalari bo'lib, ulardan biri Istanbuldagi "Otif Afandi" kutubxonasida 3245-raqam ostida saqlanadi. Uning varaqlari soni 604 tani, qatorlari soni esa 19 tani tashkil qiladi. Uning yana bir qo'lyozmasi "Avqof Bag'dod al-omma" kutubxonasida inventar raqamisiz holatda saqlanadi. Bu qo'lyozma esa 86 varaq va 24 satrdan iborat. Bundan tashqari "Azhariya" kutubxonasida 246/13 raqami bilan saqlanayotgan boshqa bir nusxasi ham bor[9:193]. Ushbu asarni eronlik tadqiqotchi Azizulloh Juvayniy bir nechta qo'lyozmalarini o'zaro solishtirib tadqiq qilgan. 1998-yil Tehronda nashr qilingan bu tadqiqot ikki jildidan iborat bo'lib, birinchisi Fotiha surasidan Anbiyo surasigacha, ikkinchisi esa Haj surasidan Nas surasigacha bo'lgan qismini qamrab oladi. Nasafiyning aynan mana shu asari Movarounnahr diyorida yozilgan dastlabki fors tilidagi Qur'oni karim ma'nolari tarjimalaridan biri hisoblanadi.

Allomaning tafsir sohasida amalga oshirgan ishlaridan uchinchisi butun islom olamiga mashhur "At-Taysir fit-tafsir" asari bo'lib, manbalarda "At-Taysir fi ilmit-tafsir" (Tafsir ilmida yengillik) deb ham nomlangan. Bu Nasafiy qalamiga mansub ikki buyuk tafsir kitoblaridan biridir. Imom Abdulhay Laknaviy shunday yozadi: "Uning fiqh va tafsir

borasida shoh asarlari bo'lib, ulardan eng buyugi "At-taysir fi-t-tafsir" dir"[10:150].

Tadqiqotchi Mohir Adib Habbush ushbu asarning uslubi haqida quyidagilarni yozadi: "Ushbu kitob tengsiz, manfaatli, chuqur ma'noli, nafis, foyda va iboralar bilan to'la, go'zal tartib berilgan, mukammal ta'lif qilingan va tafsir fanlarini o'zida jamlagan asardir. Unda muallif boshidan oxirigacha bir xil uslubni qo'llagan, har bir surani unda kelgan mavzularga mos muqaddima bilan boshlagan [6:71].

Allomaning Qur'oni karim sharhiga doir yana bir asari "al-Akmal al-atval" nomli tafsiridir. Bu asarni Nasafiy ijodidagi Qur'on tafsiriga oid eng ulkan ish deyish mumkin. Chunki u hajmi, oyatlarni sharhlashdagi qamrovining kengligi jihatidan boshqalariga qaraganda anchagina yirik hisoblanadi. Ushbu tafsir haqida juda kam ma'lumotlar uchrasada, uning bir nechta qo'lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan. Ushbu nusxalardan biri Qohirada joylashgan "Dor al-kutub val vasioiq al-qavmiyya" nomli kutubxonada 37-raqam ostida saqlanadi. Qo'lyozmaning ushbu nusxasi to'rt jildidan iborat bo'lib, hijriy 1181-yilda ko'chirilgan va kotibning nomi keltirilmagan. Har bir juzdagi dastlabki uchta va oxirgi uchta varaqning xoshiyasiga muxr bosilgan. Matn qora siyoh bilan yozilgan. Yozuvlari ba'zi joylarda bo'yalgan va ba'zi joylarda o'chib ketgan. Birinchi juzda muqaddima qismidan A'rof surasining tafsirigacha, ikkinchi juzda A'rof surasi tafsiridan Maryam surasining tafsirigacha, to'rtinchi juzda esa Maryam surasi tafsiridan Nas surasining tafsirigacha bo'lgan qismi tashkil qiladi. Ushbu kutubxonada bu asarning yana bir 38-raqam ostidagi qo'lyozmasi saqlanadi. Bu nusxa yuqoridagidan farqli o'laroq to'rttadan ko'p jildidan iboratdir. Bizda uning ikkinchi, beshinchi, oltinchi va yettinchi juzlari mavjudligi va yettinchi juzi Luqmon surasining tafsiridan boshlanishi haqida ma'lumot mavjud xolos. Shuning uchun bu nusxaning aynan qancha juzdan iborat ekanligi hozircha nomalum. Ushbu nusxalarda ham boshidagi va oxiridagi varaqlarga muxrlar bosilgan.

Ushbu tafsirning boshqa barcha tafsirlardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlaridan biri Umar Nasafiy boshqa mufasssirlar kabi to'g'ridan-to'g'ri suralarning tafsiriga kirishmasdan o'zgacha uslubni qo'llaydi, ya'ni Fotiha surasining tafsiriga kirishishdan oldin, ushbu asarning muqaddima qismida Qur'on ilmlari, Qur'on fazilatlarini va

boshqa bir qancha ilmlarga oid yigirmadan ortiq mavzulashirilgan boblarni keltirib, qisqacha oyat va hadislar asosida bayon qilib beradi. Shundan so'ng bevosita suralarning sharhigi kirishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Umar Nasafiy nafaqat aqida va ta'rix, balki Quroni karim ilmlariga tegishli asarlari bilan ham ko'pchilik e'tirofiga loyiq olimdir. Bu sohada bir qancha asarlar yozib, islom ilmlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ushbu asarlardan uchitasi yirik hajmdagi tafsirlar bo'lsa, yana bittasi Qur'onda kelgan tushunish qiyin so'zlarning izohiga bag'ishlangan. Yana uchta asar aynan qiroat ilmi bilan bog'liq va qolgan bitta asarda esa, aynan, Qur'ondagi sura, oyat va harflarning soni keltirilgan. Eng muhimi, yuqorida ta'kidlangan asarlarning barchasi chuqur mulohazalarga tayangan holda yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-Hofiz Najm ad-Din Abu Hafs an-Nasafiy. Al-Akmal al-atval. 4 juz. – Qohira: Dor al-kutub val-vasoiq al-qavmiyya. Qo'lyozma. № 37.
2. Al-Hofiz Najm ad-Din Abu Hafs an-Nasafiy. Al-Akmal al-atval. – Qohira: Dor al-kutub val-vasoiq al-qavmiyya. Qo'lyozma. № 38.
3. Sa'd ad-Din at-Toftozoniy. Sharh al-aqoid an-Nasafiy. – Qohira: Maktaba al-kulliyot al-Azhariyya, 1988. – 118 b.
4. Muhammad ibn Ahmad ibn Abubakr al-Qurtubiy. Al-jomi li ahkom al-Qur'on. Muhammad Rotib Poshsho. Qo'lyozma. № 46159.
5. Qur'oni karim ma'no-larining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2018. – 517 b.
6. Mohir Adib Habbush. At-taysir fit-tafsir ta'lif al-imom Abu Hafs an-Nasafiy. I juz. – Istanbul: Dor al-lubab, 2019. – 600 b.
7. Shamsiddin al-Qurtubiy. Al-Jomi li-ahkom al-Qur'on. 24 juz. – Bayrut: Muassasa ar-Risala, 2006.
8. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. 6-жуз. – Т.: “Ҳилол-Нашр” нашриёти, 2017. – 504 б.
9. Doktor Alishox Is'hoq. Mu'jam musannafot al-Qur'on al-karim. 2-juz. – Riyoz: Dora r-Rifo'iy, 1984. – 311 b.
10. Muhammad Abdulhay al-Laknaviy al-Hindiy. Al-favoid al-bahiyya fi tarojim al-hanafiyya. – Qohira: Dor al-kitob al-islomiy. 2009. – 263 b.
11. An-Nasafiy Umar ibn Muhammad. Zillat al-qori. – Riyod: Maktaba jomia al-Molik Saud. Qo'lyozma. № 6208.
12. Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbat at-talaba fi al-istilohot al-fiqhiyya a'la alfoz kutub al-hanafiyya. – Bag'dod: Dor at-tiboa al-omira, 1311. – 176 b.
13. Raximdjanov D. Abu Hafs an-Nasafiyning “Kitob al-qand fiy ma'rifat ulamo Samarqand” asari – Samarqandda hadis ilmi tarixi bo'yicha muhim manba: tar. fan., nomz. disser.. – T.: TIU, 2003. 170 b.
14. Al-Hofiz Shamsiddin Muhammad ibn Ali ibn Ahmad ad-Dovidiy. Tabaqot al-mufasssirin. 2 juz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1983. – 884 b.